

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduraxmonov	
Adabiy asardagi nurning xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
A.B.Kosimova	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabllar	469
	TILSHUNOSLIK
M.Y.Mamajonov	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni	473
R.M.Shukurov, G.S.Jo'raboyeva	
Farg'ona viloyati toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari	477
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida	483
F.X.Qosimova	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
A.A.Ergashev	
Etnotoponimlar tadqiqi	496
H.Sh.Radjabova	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
S.A.Jabborova	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
Sh.R.Amonturdiyeva	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari	511
D.I.Mirzayeva	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
X.F.Xaydarova	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
M.A.Hojiyeva	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
I.A.Egamberdiyeva	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi	527
D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
Z.Sh.Ashurova	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini	535
I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar	539
Z.M.Sobirova	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida.....	545
V.A.Vositov	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida	550
M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi	557
D.I.Khodjaeva	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari.....	562
O.M.Yusupova	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili	567
M.V.Nasridinov	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
M.O.Batirkhanova	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages	577
M.U.Mamadjanova	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics	582
M.V.Nasridinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili	586
M.Y.Madiyeva	



UO'K: 821.512.133-32

O'ZBEK ADABIYOTIDA HIKOYA VA DRABLLAR**STORIES AND DRABBLES IN UZBEK LITERATURE****РАССКАЗЫ И ДРАБЛЫ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ****Kosimova Azizaxon Botirali qizi** 

Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti chet tillari kafedrasini ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada o'zbek adabiyotida hikoyachilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, bu janrdagi hikoya yaratgan adiblar, ularning bugungi kungacha yaratgan ijodlari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, drabllning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni ham tahlil qilinadi.

Аннотация

В статье рассматривается возникновение и развитие сказительства в узбекской литературе, писатели, создавшие рассказ в этом жанре, их творчество до наших дней. Кроме того, анализируется роль драббля в узбекской литературе.

Abstract

The article examines the emergence and development of storytelling in Uzbek literature, the writers who created the story in this genre, their work to the present day. In addition, the role of the drabble in Uzbek literature is analyzed.

Kalit so'zlar: Adabiyotshunoslik, janr, hikoyachilik, kichik hikoya, yaproq hikoya, drabll, syujet, voqelik, qahramon.

Ключевые слова: Литературоведение, жанр, повествование, новелла, новелла, драбл, сюжет, реальность, герой.

Key words: Literary studies, genre, storytelling, short story, short story, drabble, plot, reality, hero.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda dunyodagi ko'plab sohalarda, shu jumladan, adabiyotshunoslikda ham bir qator o'zgarish va rivojlanishlar yuz bermoqda. Jahon va o'zbek adabiyotining shakliy va mazmuniy takomili o'ziga xos yangiliklarni yaratib, kitobxonlarga qiziqarli hamda mushohadali asarlarni taqdim etmoqda. Adabiy aloqalar janriy izlanishlarni ham takomillashtirib, yozuvchi va o'quvchini zamonaviylik talablariga moslashtirmoqda. Jumladan, hikoya janri hamda uning taraqqiyoti yangi bosqichlarga o'tmoqda. Bilamizki, hikoya o'zbek adabiyotida to'liq shakllanib, janr sifatida belgilangan talablarga javob beradigan ko'plab asarlar yaratilgan. Adiblarimiz tomonidan mazkur janrdagi mukammal asarlar yaratilgan va olimlar tomonidan bu yaratilgan ma'lum darajada o'rganilgan. "O'zbek adabiyotida realistik hikoya janri XX asrning boshlarida shakllandi. Mazkur jarayon A.Qodiriy ijodi bilan boshlanadi. Uning "Uloqda" nomli asari hikoyaning dastlabki namunalaridan hisoblanadi. Undan keyin o'zbek hikoyanavisligi katta rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Uning taraqqiyotiga Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov va Shukur Xolmirzaev singari yozuvchilar salmoqli hissa qo'shdilar. Ular hikoya tilining go'zalligi, latofati va soddaligi bilan o'z kitobxonlarini topdi. Hikoyalari orqali o'quvchini ruhan qahramonga yaqinlashtira oldi". [1.70]

Aytish mumkinki, o'zbek adabiyotida hikoya janri nazariy va amaliy jihatdan to'kis holatga kelgan. Biroq jahon adabiyoti va adabiyotshunosligida paydo bo'lgan ayrim hikoya tipidagi asarlar tahlili va janrdagi farqli jihatlarni tadqiq qilish lozim bo'lgan bahsli masalalarni yuzaga chiqaradi. O'zbek adabiyotida hikoya, kichik hikoya, mitti hikoya, bitiklar nomlari ostida bir qator kichik hajmli asarlar yaratilgan. Jahon adabiyotshunosligida esa drabll nomi ostida kichik hajmli asarlar yaratilmoqda. O'zbek adabiyotida yaratilgan kichik hikoyalar drabll talablariga mos keladimi, kichik hikoyalarni ham drabll nomi ostida berish ma'qulmi yoki o'zbek adabiyotida aynan drabll janrida

yaratilgan asarlar bormi? Bu kabi savollar o'rinli tadqiqotlarga yo'l ochadi va masalaning mohiyatini chuqurroq o'rganishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hikoya janrining o'ziga xos jihatlari jahon va o'zbek adabiyotshunosligida chuqur o'rganilgan. Jumladan, Norvegiyalik adabiyotshunos Xuan Rulfo hikoya janri haqida "Mening nazarimda hikoya romandan ham qiyin va mas'uliyatli janrdir" [2.63] degan fikrni ta'kidlaydi. Bu fikr orqali hikoya janriga yuklanadigan yuk va kichik hajmli asarning mas'uliyati katta bo'lishiga ishora qiladi.

Hajm jihatidan boshqa janrlardan murakkabligi bilan ajralib turadigan hikoya janrida ijod qilish yozuvchidan ancha kuch talab qiladi. Lekin so'nggi yillarda yozuvchilar orasida tobora ommalashib borayotgan hikoya janridan farq qiluvchi kichik hikoyalar ham rivojlanib bormoqda. Hikoyalardagi hajm qisqarishi mazkur sohada ijod qiladigan yozuvchilarning hikoya yaratish mahorati rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Sababi, hikoya yoki roman yaratishda hech qanday hajm cheklovi yo'q, shu sababli ham yozuvchi o'z ichki kechinmalarini bema'lol ifoda eta oladi. Kichik hikoyalardagi kichik hajmga, yoki aynan drabllarda esa yozuvchilar bor istedodi yordamida mazmunli voqealarni 100 ta so'zga jamlay olishi kerak. Shu sababli ham kichik hikoya yaratish ham qiyin, ham maroqlidir.

"XX asr o'zbek adabiyoti yangi o'zbek adabiyoti, deb ataladi. Chunki, bu davrga kelib odamlarning dunyoni tushunish tarzi, badiiy didi, olamni estetik idrok etish yo'sini o'zgardir" [3]. O'zbek adabiyotida hikoyachilikning rivojlanishiga o'zining tarbiyaviy hikoyalari bilan hissa qo'shgan bir qator yozuvchilar mavjud. Jumladan, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, G'afur G'ulom, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Normurod Norqobilov, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Shoyim Bo'tayev, Sobir O'nar, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam va boshqalar. Shakliiy muxtasarlik, qisqalik, mazmunan lo'nda va yaxlitlik hikoya janrining an'anaviy belgilaridandir [4.186].

Qadimgi davrlarda hikoyachilik avlodan-avlodga og'zaki ijod namunasi sifatida shakllangan. Bunda insonlar bir-birlariga og'zaki tarzda rivoyatlar, xalq ertaklari hamda dostonlar aytish orqali hikoyanavislikni shakllantirganlar. Og'zaki hikoyalarda, ko'pincha, qahramonlar, afsonaviy mavjudotlar, axloqiy saboqlar o'z ifodasini topib, jamiyatning qadriyat va e'tiqodlarini aks ettiradi. Qadimgi davrlarda o'zbek hikoyachiligi to'liq rivojlanmagan bo'lsa-da, bugungi kundagi hikoyachilikning asosi hisoblanadi.

O'zbek hikoyachiligida tarixiy voqealar, madaniy an'analar, sevgi, sadoqat, hurmat mavzulari katta o'rin tutadi. Hikoyachilik o'zbek xalqining tajribasi va intilishlarini o'zida aks ettirgan holda rivojlanib, o'zgarib borayotgan zamonga moslashib bormoqda. O'zining qisqa va lo'nda lekin juda ma'noli hikoyalari bilan o'zbek adabiyotida hikoya janrining rivojlanishiga katta xissa qo'shgan yozuvchi Abdulla Qahhor hisoblanadi.

Abdulla Qahhor hikoya janrida qisqalikka intilganligi bilan ajralib turadi. Adib bir maqolasida: "Men hikoyachilikni juda yaxshi ko'raman va shu bilan birga, hamma vaqt qalamimning qayrog'i, deb qaraganman" [5.222], deb yozgan. Yozuvchining deyarli barcha asarlari insonlarga yaxshilash ulashishga, ezgu yo'lda xizmat qilishga qaratilgan.

Abdulla Qahhor roman, qissa, drama yo'nalishida ham qalam tebratgan bo'lsa-da, o'sha asarlari ham mazmunan bir-biriga bog'liq kichik hikoyalardan tashkil topganga o'xshaydi. Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda "yozuvchi janrni emas, janr yozuvchini tanlaydi" [6.110]. O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga nazar tashlasak, keying paytlarda kichik hikoya shaklidagi asarlar ham rivojlanib bormoqda va bu shaklda izlanishlar olib borayotgan ijodkorlar soni ortib bormoqda. Xususan, O'tkir Hoshimov, Ashurali Jo'rayev, Abduqayum Yo'ldoshev, Nuriddin Egamov, Alloma Hakimova, Aziz Nur, Fozil Jo'ra va boshqalar ijodida kichik hajmli hikoyachalarni ko'rish mumkin.

"Qisqa hikoyani, shuningdek, jajji, ixcham, yaproq hikoyalar deb ham atashadi" [7.3]. Ayrim o'rinlarda drabl nomi bilan ham chop etilayotgan hikoyachalarni ko'rish mumkin. Shu o'rinda o'zbek adabiyotshunosligida alohida o'rganilmaganligini inobatga olib, drabl janri va uning taraqqiyotiga ham biroz to'xtalib o'tsak.

"1980-yilda Buyuk Britaniyada drabl deb nomlangan hikoyanavislikning yangi janri vujudga keldi va bunday kichik asar bor-yo'g'i 100 so'zdan iborat bo'lib, tugallangan g'oya va o'ziga xos

ADABIYOTSHUNOSLIK

shaklga ega bo'lishi lozim degan talab yozuvchilar oldiga qo'yildi. Drabblar bir qator o'ziga xos xususiyatlariga ega. Masalan;

- Biror voqelikning qisqacha tarixi berilishi;
- Drabblning kutilmagan yechim bilan yakun topishi;
- Eng qisqa va tugal voqelikni qamrab olishi". [8.3]

Bu kabi musobaqa va talablar ijodkorlarga yangicha izlanishlar sari yo'l ochadi. Shu tariqa drabll janri paydo bo'ladi va kitobxonlar tomonidan iliq qabul qilinadi.

O'zbek adabiyotida ham drabll talablariga qisman yoki to'liq mos keladigan bir qator asarlar yaratilgan. To'g'ri, ayrim holatlarda yozuvchining o'zi aynan drabll jarnida yozilganligiga ishora qilmagan bo'lsa-da, biroq adabiy ta'sir yoki adabiy muhit kichik hikoyalarning yaratilishiga turtki bo'lgan. Jumladan, O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida kichik hikoyalarning, aynan drabll talablariga mos keluvchi asarlar namunalarini uchratishimiz mumkin. Masalan, "O'talar va bolalar", "Nasldor Buqa", "Nosqovoq", "Aqllilik balosi", "Gumroh bandalar" va "Tutingan" o'g'il asarlari ham hajman, ham shaklan hamda mazmunan drabllga mos keluvchi asarlar hisoblanadi. Masalan, adib ijodidagi drablllar asosan oila, jamiyat, ota-ona mavzulariga bag'ishlangan. Yozuvchining oila mavzusidagi drabllaridan biri "O'talar va bolalar" asari hisoblanadi.

"U oddiy odam edi. Hammolchilik qilardi. To'rt qiz, uch o'g'ilni oyoqqa turg'azdi. O'g'illarini uylantirdi. Qizlarini chiqardi. Hammasini uyli-joyli qildi. Ko'z yumayotganida "hammalarindan mingdan-ming roziman", dedi... Qarashsa, kafanligi yo'q ekan..."

Bu kichik hikoyada butun umrini farzandlariga bag'ishlagan oddiy ota timsoli gavdalangan. U hammolchilik orqali yetti fazandni tarbiyalab voyaga yetkazgani hamda uyli-joyli qilgani tasvirlangan. Umri davomida faqat bolalari va ularning kelajagi uchun harakat qilgani, shunday bo'lsada ko'z yumayotganda *"hammalarindan mingdan-ming roziman"* deyishi har qanday otaning so'nggi so'zi bo'lsa, o'zi uchun hatto kafalanlik olmagan har qanday kitobxonni hayratlantiradi. Adibning bu asari drabll talablariga to'liq mos keladi.

"U oddiy odam edi. Hammolchilik qilardi. To'rt qiz, uch o'g'ilni oyoqqa turg'azdi. O'g'illarini uylantirdi. Qizlarini chiqardi. Hammasini uyli-joyli qildi" jumlasini voqelikning qisqacha tarixi hisoblansa, *"Qarashsa, kafanligi yo'q ekan..."* jumlasini kutilmagan yechimni ifodalaydi. Otaning ko'z yumish jarayoni tasviri qisqa va tugal voqelikni qamrab oladi. Bu tahlildan ko'rinadiki, hikoya yuqorida sanalgan drabll strukturasi mazmunan mos keladi. Shakliy jihati talabi bo'yicha ham asar hajman 100 ta so'zdan oshmagan. Demak, O'tkir Hoshimovning mazkur hikoyasini janr jihatdan drabll talablariga to'liq mos kelishini ta'kidlashimiz mumkin bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida drabll janrida ijod qilayotgan yosh yozuvchilar ham mavjud. Drabllar yaratayotgan ijodkorlardan biri Abduqayum Yo'ldoshev hisoblanadi. Uning "Muhabbat", "Azob", "O'tinch", "Ibrat", "Razolat", "Ong", "Baho" va boshqa bir qator drabllari bor.

NATIJAR VA MUHOKAMA

O'tkir Hoshimov ta'biri bilan aytganda, "Menimcha, chinakam badiiy asar yaratish uchun, odamlarni hayajonga soladigan, har gal takror o'qiganda ko'ngilga zavq bera oladigan asar yaratish uchun, eng avvalo, xudo bergan talant – iste'dod kerak" (9.397).

Bugungi kundagi zamonaviy, yangi va yosh qalamkashlarning mitti hikoyalari ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ularning yaratayotgan drabllari asosan sadoqat, mehr, hurmat hamda oqibat mavzulariga oiddir. "Hikoyachilikning asosiy maqsadi o'quvchiga ma'lum bir syujet orqali yaxshilik qilishga undashdir" (10.).

Masalan, yosh ijodkor Aziz Nur qalamiga mansub "Buvi" drabllari orqali buvilarning mehr tuyg'usini his qilishimiz mumkin.

Televizorda chiqqan nevarasiga qarab, "Hah, o'zimning bulbulovoz bolajonim-a, qo'shig'ing o'ynatadi-ya" deb o'ynayverdi momo! Atrofdagilar na "Bu intervyu beryapti" deyishti, na "Sizning qulog'ingiz uch yildan beri eshitmaydi-ku" deyishdi. Momo qo'llarini ko'tarib-ko'tarib o'ynayverdi.

Ushbu asar drabllning uch xususiyatiga to'liq mos keladi. Jumladan, yuqoridagi voqelikning qisqacha tarixi *"Televizorda chiqqan nevarasiga qarab"* jumlasini hisoblanadi. Qisqa va tugal voqelik sifatida hayotdagi kichik bir epizod olingan. Drabllidagi ushbu so'nggi jumla *"Momo qo'llarini ko'tarib-ko'tarib o'ynayverdi."* voqeaning kutilmagan yechimidir. Sababi, buvi o'z nabirasini televizor orqali ko'rib u qo'shiq kuylamayotgan bo'lsa ham, kuylagan taqdirda ham eshitmasa ham xursandligidan o'ynayvergani hisoblanadi. Ushbu drabll kitobxonlarga buvi obrazi orqali onalar va

buvilarning farzand va nabiralariga mehri kuchliligini, har qanday sharoitda ham ulardan faxrlanishlarini ko'rsatadi. Bundan tashqari, televizorga chiqqan nabira u balkim xushovoz emasdur yoki intervyu berayotgan bo'lsa-da, u ijobiy ma'noda emasdur. Lekin, bularning buvilarga ahamiyati yo'q. Eng muhim narsa bu nabirasi televizorga chiqqani hisoblanadi. Yozuvchining mahoratini ushbu kichik asarda tanlangan obraz orqali sezishimiz mumkin. Masalan, kitobxonga kuchli ta'sir etishi uchun u aynan qulog'i eshitmaydigan buvi obrazi tanlangan. Eshitish qobiliyati bo'lgan taqdirda ham har qanday buvi nabirasi televizorga chiqqanda o'ynaydi, ammo, u intervyu berayotgan bo'lsa diqqat bilan eshitadi.

XULOSA

Shunday qilib, o'zbek adabiyotida hikoya janrining rivojlanishi ham adabiyotshunoslik sohasiga ham jamiyatimizga manfaatli bo'ldi. Sababi, hikoyalar kitobxonlar tomonidan yaxshi kutib olindi va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ldi. Bundan tashqari, hikoyachilik janri keyinchalik drabbllar janrining rivojlanishi o'zbek kitobxonlari sonini oshirishga xizmat qildi. Sababi, qisqa hikoya o'qish ko'p vaqt talab qilmaydi lekin uning mazmun-mohiyati keng qamrovli bo'ladi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkin-ki, o'zbek adabiyotidagi yangi janr hisoblangan drabbllar mustaqillik davridan bugungi kunga qadar rivojlanib, o'zbek adabiyotshunosligida o'z o'rnini topmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G.Oxunova. Hikoya janri taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari. -T.: "So'z san'ati xalqaro jurnali", 2021.- bet 70.
2. Y.Solijonov . Hozirgi adabiy jarayon: o'quv qo'llanma.-T.: "Innovatsion ziyo", 2020. – bet 63
3. Saydulla Mirzayev. XX asr O'zbek adabiyoti. - T.: "Yangi asr avlodi", 2005.
4. Dilbar Hasanova . O'zbek hikoyachiligi va uning taraqqiyot yo'li. "Eurasian Journal Of Academic Research" , 2023
5. Saydulla Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti.- T.: "Yangi asr avlodi", 2005. b 222
6. Sh.Absayitova. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi. "XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar", bet 110
7. Nodirabegim Ibrohimova . Mitti hikoyalari: kecha va bugun. – T.: "Yangi kitob", 2020.
8. Драббллар. Dunyoning eng kichik hikoyalari. "O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2018. — 3 b.
9. Saydulla Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti.- T.: "Yangi asr avlodi", 2005. – bet 397.
10. X. Do'stmuhammedov . Hozirgi o'zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi .-T.: 2020.